O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
(O‘MM rektori)
2024 yil “07” avgust

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
fani

O‘QUV DASTURI
(barcha nomutaxassis bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun)

Toshkent – 2024

Fan/modul kodi UYT 1104	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1/2	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili o‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	60	60	120

I. Fanning mazmuni.

Fanni o‘qitishning maqsadi – O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan hududlardan biri, o‘zbek xalqi boy tarixiy o‘tmish va bebaho ma’naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida ma’naviyatning asosi bo‘lmish tarix fanining o‘rnini talaba yoshlarga o‘zlikni anglash vositasi sifatida, shuningdek, O‘zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda, shaxs, fuqaro, inson, jamiyat va davlat tamoyili mohiyatini yetkazib berishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifalari – boy tarixiy o‘tmish, xususan, o‘zbek davlatchiligiga tarixiy ekskurs uyushtirish, qarama-qarshiliklarga boy ziddiyatli XX asr tarixi mazmun-mohiyatini ochib berish, mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hamda boshqa sohalarda amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga to‘liq tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda Yangi O‘zbekiston yoshlarida milliy g‘urur va iftihorni shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish.“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” – O‘zbekiston tarixining uzviy va ajralmas qismidir. “Eng yangi tarix” tushunchasi va uning izohi.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi

tarixining tutgan o‘rni to‘g‘risida. XXI globallashuv asrda ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar. Yangi O‘zbekiston yoshlari ta’lim-tarbiyasidagi ma’naviy mezonlarni targ‘ib etishda tarix fanining tutgan o‘rni.

2-mavzu. O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy asoslari

Davlatchilik tushunchasi. O‘zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashgan qahramon shaxslar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti. O‘rta Osiyoning xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabab va oqibatlari.

Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Milliy ozodlik harakatlari. Mustamlaka boshqaruv tartiboti va uning mohiyati. Fidoyi jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va ularning o‘lka ma’rifiy va madaniy hayotida tutgan o‘rni. Sovet hukmronligi davrida O‘zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari. Sovetlarning qatag‘on-zo‘ravonlik siyosati va uning mohiyati.

3-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. “Qayta qurish” siyosati va uning O‘zbekistonga ta’siri. Markaz tomonidan “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kabi mash’um kampaniyalarning o‘tkazilishi. Aholi turmush tarzining og‘irlashuvi. Orol fojiasi. Farg‘ona voqealari. 1989 yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1989-1991 yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar va ularning mohiyati. 1991 yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

4-mavzu. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar. Mustaqillikning e’lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.

Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lining tanlashi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslarning ustuvor yo‘nalishlari. Mustaqillik me’yoriy-

huquqiy asoslarining yaratilishi. 1992 yil Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.

5-mavzu. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.

Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.

6-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslari. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirilish mexanizmi. Pul islohotining o‘tkazilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Makroiqtisodiy barqarorlik tomon yo‘l olinishi.

7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar.

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borishi, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joy bilan ta’minlash, yo‘l-transport muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya masalasidagi ishtiroki.

Yangi O‘zbekistonda oila instituti va uning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi. Gender tengligi. Xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat. Onalik va bolalik haq-huquqlarini himoya qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va

huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

8-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.

Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor. Mustaqillik yillarida ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi davlat siyosati. O‘zbekistondagi tarixiy - Xiva, Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz, Termiz, Qarshi, Marg‘ilon shaharlari yubileylarining nishonlanishi. Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san’at sohasining rivojlanishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi.

Yangi O‘zbekistonning uchinchi renessans tomon tutgan yo‘li. “Beshta tashabbus” va uning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi. Amaliy san’at, rassomchilik, teatr va kino san’ati. O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi. Samarqand shahri - jahon turizm poytaxti.

9-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

Mustaqillikning ilk yillarida та’lim tizimidagi o‘zgarishlar. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni va roli. 1992 yilgi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning (1997 y.) qabul qilinishi. Ta’lim milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi islohotlar. Zamonaviy o‘qitish va ta’lim tizimiga doir davlat siyosati. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonuni (2020 y.). Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

10-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.

O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni. Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasi. O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o‘zaro manfaatli va yaqin qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan ochiq va shaffof tashqi siyosati. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borayotgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi. O‘zbekistonning ShHT bilan aloqalarining kengayishi. ShHTning Samarqand deklaratsiyasi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlar bilan yangi strategik sherikchiligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan faol tashqi siyosatning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi.

Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

11-mavzu. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi

“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o’rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo’nalishdagi ishlarning samaradorligiga to’siq bo’layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar:

O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo’lgan xalqaro reyting va indekslar bo’yicha samaradorlikning eng muhim ko’satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. “Biznes yuritish indeksi”, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korruptsiyani qabul qilish indeksi”, “Logistika samaradorligi indeksi”, “Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi”, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi. “Inson kamoloti indeksi”, “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi”, “Matbuot erkinligi indeksi” va boshqalar.

12-mavzu. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi.

13-mavzu. Yangi O‘zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati

2016 yil sentyabridan virtual qabulxonalarning ochilishi. 2017 yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o‘zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarning faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar.

Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati va O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.

III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. **“**O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.
2. O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy asoslari
3. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
4. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.
5. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.
6. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.
7. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar.
8. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.
9. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
10. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.
11. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi.
12. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar.

13. Yangi O‘zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida ro‘y bergan madaniy uyg‘onish (Renessans).Buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi.
2. Jaloliddin Manguberdi - Vatan himoyachisi.
3. Amir-Temur buyuk davlat arbobi.
4. Mirzo Ulug‘bek - davlat arbobi va buyuk olim.
5. Jadid ma’rifatparvarlarining o‘lka ijtimoiy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rni (Munavvar Qori, Fitrat, Behbudiy, Avloniy va boshq.).
6. “Qayta qurish” yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
7. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar mazmun va mohiyati.
8. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
9. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy o‘zgarishlar.
10. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati.
11. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi o‘zgarishlar.
12. Yangi O‘zbekistonda inson haq-huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.
13. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi.
14. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari
15. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning mazmun-mohiyatini, O‘zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o‘zgarishlarning ahamiyatini;
- zamonaviy jarayonlarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi kabi jarayonlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan ***bilishi*** kerak;
- O‘zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o‘rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g‘oyasini qo‘llay bilish, atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarga o‘z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o‘rnini anglash va bugungi kunda sodir

bo‘layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog‘liqligini bilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi*** kerak.

- O‘zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma’naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g‘oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi ***malakalarga ega bo‘lishi*** kerak.

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
6. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O’zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: O’zbekiston, 2023.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

8. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024.

Asosiy adabiyotlar

1. R.H. Murtazayeva O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.

2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Yermetov, A.A.Odilov va boshq. - Toshkent, 2024.

3. O‘zbekiston tarixi. A.S.Sagdullayev umumiy tahriri ositida. 1-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.

4. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O‘zbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.

5. К.Д.Саипова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). –Ташкент: NIF MSH, 2024.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullaev, Q.Rajabov, M.Rahimov. Darslik.- Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

2. O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. Darslik. – Toshkent, 2020.

3. D.T.To‘xtaboyeva. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: ma’naviy yangilanish, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2021.

4. N.Oblamurodov. F.Tolipov. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.

5. A.A.Insopov. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet. 2023.

6. O.Q.Alimardonov. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent, FAST SUPPORT AND RESULT, 2023.

7. Т.И.Дорошенко. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.

8. Д.М.Иноятова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для вечерних отделений). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

	Fan dasturi Oliy ta’lim ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024 yil ___ avgustdagi __-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Fan/modul uchun mas’ullar: R.H.Murtazayeva – O‘zMU Tarix fakulteti “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. K.D.Saipova – O‘zMU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori. A.A. Yermetov – O‘zMU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. A.A.Odilov – O‘zMU Tarix fakulteti “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi. A.A.Insopov - O‘zMU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori. O.Q.Alimardonov - O‘zMU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
	Taqrizchilar: R.E. Xoliqova – I.Karimov nomidagi TDTU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri, professor, tarix fanlari doktori X.E. Yunusova – O‘zMU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
2024 yil “02” avgust

“DINSHUNOSLIK”
FANINING
O‘QUV DASTURI

Ta’lim yo‘nalishi: Barcha nomutaxassis yo‘nalishlar talabalari uchun

Toshkent – 2024

Fan/modul kodi **DI1404**	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek/rus		**Haftadagi dars soatlari** 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	**Dinshunoslik**	60	60	120

2.

I. Fanning mazmuni.

Dinshunoslik turli dinlar, diniy institutlar, urf-odatlar va muqaddas matnlarning tarixiy, falsafiy va ijtimoiy mohiyati haqidagi fan bo’lib, unda, diniy matnlarning mohiyatini tushunish, diniy bilimlardan inson qalbining pokligini ta`minlash maqsadida foydalanish, shuningdek diniy e’tiqod bilan bir qatorda amaldagi konstitutsion boshqaruv tizimini hurmat qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash madaniyatini shakllantirish o’rganiladi. Dinshunoslik fani barcha soha mutaxassislarining iymon butligi, vijdon pokligini ta`minlashga, dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligiga erishish, yurt tinchligini saqlashda dahldorlik tuyg‘sini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talaba-yoshlar tafakkurida dinning mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o’zaro bog‘liqligi, globallashuv jaryonlarida diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta’sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – diniy ta’limotlarning tarixi va rivojlanish bosqishlarini o‘rganish, dinning asl mazmuni bilan uning soxta talqinlarini farqlash malakasini shakllantirish;

diniy mutaassiblik va aqidaparastlikning mazmunini tushunturish va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo`llash,

ekstremizm va terrorizmning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash va uning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish;

diniy va dunyoviy jarayonlarga tanqidiy tafakkur nuqtai nazardan yondashuvni shakllantirish;

talabaning mustaqil ta’lim olish jarayonida din tarixi, milliy va dunyoviy dinlar rivoji, diniy qadriyatlar haqida egallangan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-modul. DINSHUNOSLIK

1-mavzu. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Din ijtimoiy ong shakli, turmush tarzi, tafakkur uslubi va ma’naviy qadriyat sifatida. Dinni o’rganuvchi fan sohalari: dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, uning predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Dinning mohiyati. Dindorlik va taqvodorlikning o’zaro aloqasi va farqi. Dinning strukturasi va funksiyalari. Dinning turlari: politeizm, monoteizm va genoteizm. Dinlarning tarixiy shakllari: ibtidoiy din, milliy dinlar va jahon dinlari. Dinning jamiyat va shaxs ma’naviyati yuksalishi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

2-mavzu. Milliy dinlar

Milliy dinlarning ta'rifi. Hindiston milliy dinlari: vedalar, upanishada, braxmanizm va hinduilik. Jaynizm va sikhizm ta'limotlari. Xitoy milliy dinlari: konfutsizm va daosizmning mohiyati. Yapon milliy dini sintoizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Yahudiylik milliy dinining tarixi, muqaddas matnlari, teologik asoslari va marosimlari. Tangrichilik e'tiqodi va zardushtiylik ta'limotining mohiyati. Avesto muqaddas manbasidagi g'oyalarning tarbiyaviy ahamiyati. Milliy dinlarning milliy ong va milliy o'z o'zini anglashdagi o'rni.

3-mavzu. Buddizm dini tarixi va asosiy g`oayalari

Buddaviylikning jahon dini sifatidagi maqomi. Buddaviylikning paydo bo'lish tarixi va uning asoschisi. Tripitaka buddaviylikning muqaddas manbasi. Buddabiylik talimotlarida olam va inson haqidagi g'oyalar. Maxayana, nixayana, lamaizm va dzen buddaviylik ta'limotlari. Buddaviylikning Markaziy Osiyoa kirib kelishi. An'anaviy buddaviylikning rivojlanishi. Chan buddizmning madaniy hayotga ta`siri. Modern buddaviylikning o`ziga xos xususiyatlari. Global buddaviylik va uning yo'halishlari. Buddabiylik go'yalarining tarbiyaviy ahamiyati.

4-mavzu. Xristian dini tarixi va asosiy g'oyalari

Xristianlikning jahon dini sifatidagi maqomi. Xristianlikning paydo bo'lishi va tarqalishi. Xristianlikning muqaddas kitobi. Xristianlikning ta'limoti, marosimlari va bayramlari. Xristianlikning asosiy yo'nalishlari: katolitsizm g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari. Pravoslavlik dinining mohiyati. Protestantlik dinining shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekistonda xristian dinining tarixi va hozirgi zamon. Xristian dinida inson tarbiyasiga oid g'oyalarning ijtimoiy ahamiyati.

5-mavzu. Islom dini tarixi va mohiyati

Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitlar. Islomgacha bo'lgan diniy e'tiqod va tasavvurlar. Xaniflar harakati. Arabiston yarim orolidagi diniy manzara. Islom dini muqaddas manbalari.Tafsir ilmi. Islom dini ta'limoti. Islomda amallar tasnifi. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta`limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta`siri. Hozirgi davrda islom sivilizatsiyasining ahamiyati.

6-mavzu. Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati

Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji. Sunniylik va Shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar. Moturidiylik va ash'ariylik maktablari. Kalom falsafasi. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi. Noan'anaviy e'tiqodlar: xorijiya, mu'taziliya, qarmatiya harakatlari.

7-mavzu. Islom fiqhiy maktablari

Ilk islomiy fiqhiy maktablarining shakllanish tarixi va ularning tasnifi. Hanafiya, molikiya, shofe'iya, xanbaliya mazhablarining asosiy g'oyalari va fiqhiy dalillash

metodlari. Shariat kategoriyalari: halol, mandub, muboh, makruh, harom. Qozi mahkamalarining islom huquqini ta`minlashdagi o`rni. O‘rta asrlarda fiqh ilmining rivojlanishida Movarounnahr faqihlarining o‘rni. Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-Hidoya’’ asarining fiqh ilmi rivojidagi ahamiyati.

8-mavzu. Tasavvuf ta’limotining Sharq madaniyatiga ta`siri

Tasavvuf ta'limotining shakllanish tarixi, mohiyati va asosiy g‘oyalari. Tasavvuf ta'limotida Qur’ondagi nafs tarbiyasi, zuhd va zohidlikka oid g‘oyalarining rivojlantirilishi. Tasavvuf ta’limotida ilohiy ishq g`oyasining mohiyati. Ilk tasavvuf adabiyotlarining talqini. Islomda avliyo tushunchasining sharhi. Yusuf Hamadoniy ta’limoti, Kubroviya, Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining ijtimoiy ahamiyati. Tasavvufning badiiy adabiyotga ta’siri. Tasavvufda ruhiy tarbiya bosqichlari va maqom. Zamonaviy tasavvuf tariqatlari.

9-mavzu. Islom qadriyatlari va ma’rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati

Islom dinida ijtimoiy tenglik, adolat, bag`rikenglik va vatanparvarlik g‘oyalarining mohiyati. Islom inson huquqlari haqida. Shariat muxofazasidagi besh qadriyat: din, hayot, aql, mulk va nasl. Islomda atrof muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalashlari. Islom dini nikoh va oilaviy munosabatlar, er-xotinning huquq va majburiyatlari haqida. Islomda ota-onalarga hurmat va farzand tarbiyasidagi mas`uliyat g`oyalari. Islom dini axloqiy qadriyatlar haqida. Islomda do‘stlik, o‘zaro hurmat va sog‘lom turmushning targ‘iboti. Islomda fan va ta’lim, madaniyat va san’atga munosabat. Islom manbalarida tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va ilm-ma'rifatning talqini. Islom arxitekturasi. Makka va Madina shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va ibodat marosimlari. Islom dinining jahon sivilizatsiyasi rivojidagi o‘rni. XXI asrda O‘zbekiston ulamolari tomonidan tinchlik, ilm-ma’rifat va bag’rikenglikga oid adabiyotlar tahlili.

2 – modul. ZAMONAVIY DINIY HARAKATLAR VA OQIMLAR

10-mavzu. Yangi diniy ta`limotlar va sektalar

Yangi diniy harakatlar paydo bo`lishining sabablari va yo`nalishlari. Bahoiylik va qodiyoniylik (ahmadiylik) harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi va baxshillochilar jamoasining maqsadlari. Yangi xristianlik harakatlarining yo’nalishlari. O‘zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalarning faoliyati. Sekta tushunchasining mohiyati va unung yo’nalishlari. Cherkov va sekta faoliyatidagi farqlar. Zamonaviy diniy sektalar va ularning barqaror taraqqiyot maqsadlariga salbiy ta‘siri.

11-mavzu. Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi

Kiber makon, kiber zo’ravonlik (cyberbullying), kiber xavfsizlik tushunchalarining mohiyati. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi ekstremistik jamoa va shaxslarning ijtimoiy hayotga salbiy ta’siri. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati. Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xalqaro missionerlik tashkilotlarining faoliyati yo’nalishlari,

ularning targ‘ibot usullari. Missionerlik targ`boti usul va vositalarning zamonaviylashuvi. Diniy manipulyasiyaning inson ongiga ta`siri. Kiber makonda missionerlik va prozelitizmning ma`naviy barqarorlikga tahdidi hamda ularni bartaraf etishning mexanizmlari. Kiber xavfsizlik usullari.

12-mavzu. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm, terrorizmning tarixi va ularning hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi

Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzutilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Din niqobidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari. Xalqaro diniy terroristik guruhlar – al-Qoida, Ixvanul muslimin, ISHID, Boko xaram, tolibonlar tashkilotlarining xavfsizlikga tahdidi. O‘zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta’siri. Turkiston islom harakati, akromiylar, soxta salafiylik, vahobiylik, xizbut tahrir va nurchilik harakatlarining paydo bo’lish tarixi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O’zbekistonda radikal oqimlarga qarshi kurashning yo’nalishlari va huquqiy asoslari.

3-modul. O‘ZBEKISTONDA DINIY KONFESSIYALAR VA TASHKILOTLARNING YO`NALISHLARI

13- mavzu. O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar

Sovet O‘zbekistonida dinga munosabatning asosiy jihatlari. O`zbekiston musulmonlar idorasining tashkil etilish tarixi va ahamiyati. Xalqaro islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi faoliyatining maqsadi va vazifalari. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me’yorlarga moslashuvi va jamiyat barqarorligini ta`minlashdagi o`rni. O`zbekiston Prezidentining BMTning 72 sessiyasida diniy bag`rikenglik rezolyusiyasini qabul qilish haqidagi taklifining ijtimoiy siyosiy ahamiyati. Dunyo mamlakatlari va O`zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining mohiyati. O`zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonunning qabul qilinishi tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e’tiqod erkinligi tushunchalarivning ta’rifi. Diniy ta’limotlarning vijdon erkinligiga munosabati. Konfessiya tushunchasining mohiyati. O`zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi va konfessional jarayonlarning asosiy yo‘nalishlari. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion, separatsion va kooperatsion modellar).

14-mavzu. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining tarixi va ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati

Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining yo’nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti, islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo‘yicha islom tashkiloti. Arab davlatlari ligasining maqsadi. Islomiy banklar faoliyatining yo‘nalishlari. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo‘nalishlari. BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo‘nalishlari: terrorizmning tarqalishiga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga umumiy hurmatni ta’minlash. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining yo`nalishlari. O‘zbekistonning

terrorizmga qarshi kurash tajribasi. O‘zbekistonda «Jaholatga qarshi ma’rifat» g’oyasining diniy terrorizmga qarshi kurashdagi ahamiyati. Geosiyosiy jarayonlarda din omili. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining barqaror taraqqiyotni ta`minlashdagi roli.

15-mavzu. Dun’yoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta’minlashning ahamiyati

Yangi O‘zbekistonda dunyoviy va diniy ta`lim va tarbiyaning yo`nalishlari. Yangi O`zbekiston oliy ta`lim muassasalarida diniy ta`limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, diniy ta’limning g’oyalari va usullari. O`z-o`zini boshqarish organlarida (mahalla) diniy ta`lim va tarbiyani tashkil etishning ahamiyati. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs kamolotidagi roli. Dinda axloqiy qadryatlar va me’yorlar dialektikasi. Diniy poklaninsh - katarsisning ijtimoiy psixololgik mohiyati. Raqamlashgan sivilizatsiya davrida diniy e’tiqodni tarbiyalash va diniy matnlarni o`qishda xolislikni ta’minlashning zarurati. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag’rikenglikning shaxs kamoloti va e’tiqod erkinligini taminlashdagi roli. O‘zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g`oyalarni o`rganishning ahamiyati. Dun’yoviy va diniy bilimlar mutanosibligiga erishishda sekulyarlashuvning o’rni. Sekularizatsiyaning jahon dinlariga ta`siri va barqaror taraqqiyotni ta`minlashdagi o`rni. Dunyoviy hayot va diniy qadryatlarning mutanosibligiga erishishning yoshlar tarbiyasiga ta`siri.

III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Milliy dinlar
3. Buddaviylik dini tarixi va g’oyalari
4. Xristianlik dini tarixi va g’oyalari
5. Islom dini tarixi va mohiyati
6. Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati
7. Islom fiqhiy maktablari
8. Tasavvuf ta’limotlarining Sharq madaniyatiga ta`siri
9. Islom qadriyatlari va ma’rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati
10. Yangi diniy ta`limotlar va sektalar
11. Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy- siyosiy xavfi
12. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm va terrorizmning tarixi va hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi
13. O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar
14. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining tarixi va ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati
15. Dun’yoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta’minlashning ahamiyati

Seminar mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardan bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

	IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar **Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:** 1. “Sharq mutafakkirlarining islom dinning inson kamolotiga ta’siri haqidagi go’yalari” mavzusida esse tayyorlash 2. G‘azzoliyning Tavba asari asosida “Din va axloq” mavzusida esse tayyorlash 3. “Din va hurfikrlilik “mavzuksioda prerzentatsiya tayyorlash (Berdyaevning diniy hurfikrlilik haqidagi g‘oyalarini G‘azzoliy g‘oyalari bilan qiyoslash) 4. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik mavzusida krossvord tayyorlash 5. O‘zbekistonda konfessiyalararo diniy bag’rikenglikning tarixiy tajribasi mavzusida test tayyorlash. 6. Imom Buxoriyning “Al-Adab al-mufrad” asarini konspektlashtirish va esse tayyorlash 7. Abu Homid G‘azzoliyning “Mukoshafatul qulub” asari bo’yicha esse tayyorlash 8. Abdurauf Fitratning “Muxtasar islom tarixi” risolasi bo‘yicha krossvord tayyorlash 9. Abdulla Avloniyning komil inson haqidagi qarashlari mavzusida esse tayyorlash 10. Islomda inson huquq va erkinliklarini ta’minlanishining o’ziga xos jihatlari mavzusida 10 ta kazus savol tayyorlash. 11. Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asaridagi diniy e’tiqodlarni tahlil etish 12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila” asarida islom qadriyatlarining talqini mavzusida taqdimot tayyorlash 13. Islom huquqshunosligida oila, nikoh, taloq, idda, zihor tushunchalarini ta’riflash va taqdimot tayyorlash 14. Jamiyat hayotida duyoviylik va diniylik mutanosibligi mavzusida 10 ta kazus savol tayyorlash 15. Qohira deklaratsiyasi tarixi va mazmuni borasida tahliliy maqola tayyorlash 16. “Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadis ilmiga qo’shgan hissalarini qiyosiy tahlili” mavzusida prezentatsiya tayyorlash 17. Mustaqillik yillarida Qur’onning o’zbek tiliga tarjima qilinishi va tafsirlari haqida taqdimot tayyorlash 18. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik mavzusida krossvord tayyorlash 19. Talabalar bilan O’zbekistondagi diniy tashkilotlarga borish (viloyatlar doirasida masjid, madrasa, ma’had, cherkov, sinagoga va boshqalar) 20. Talabalar bilan diniy savodxonlik bo’yicha suhbatlar, zakovat o’yinlari va boshqa ma’rifiy tadbirlar tashkil etish. *Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan esselar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.*
3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:** • dinning mohiyati, jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni, diniy e'tiqodga ega bo'lgan insonlar dunyoni qanday tushunishlari, dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligi, din va fanning o’zaro aloqasi, diniy va dunyoviy ta’limning maqsadlari haqida tasavvurga ega bo’lishi;

	• dinshunoslik fanini o’rganish orqali talabalar turli dinlarning mohiyati, ularning urf-odatlari va e'tiqodlari orasidagi farq va umumiylik, diniy va dunyoviy bilimlarning insonlarning bag'rikengligi va o'zaro hurmatini tarbiyalashdagi o’rni, milliy va jahon dinlari, e'tiqodlari va urf odatlari, an’analari, diniy-axloqiy g‘oyalarning tahlili, dinshunoslik asosiy tushunchalari xudo, payg‘ambarlar, inson, taqdir, oxirat, iymonning mohiyati, buddaviylik dini tarixi va inson tarbiyasiga oid g’oyalari, xristian dini g’oyalarining insonning ma’naviy va axloqiy kamolotini tarbiyalashdagi roli, islomning sunniylik, shialik va xavorijlar yo‘nalishlarining mohiyati, kalom ilmining shakllanishi va tasavvuf ta’limotining mohiyatini bilishi va ulardan foydalana olishi; sekularlashuv jarayonlarni tushunish, turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy murosa qilish, ular bilan muloqot qilish madaniyati; din nomi bilan sun’iy bog’langan ma’naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi kurashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlarda (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob) • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Jalilov B. Dinlar falsafasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. –148 b. 2. Kamilov D. Dinshunoslik. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021. –128 b. 3. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent: «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b. 4. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O’quv qo’llanma. – Toshkent: «O’FMJ» nashriyoti, 2018. – 304 b. 5. Shermuxamedova N.A.Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. – Darslik. – Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-499. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. 8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon. –Toshkent: O‘zbekiston, 2019. 9. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim. –

	Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019. 10. Rumiy J. Yetti majlis. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. 11. Rumiy J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. –Toshkent: Navruz, 2019. 12. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik.o`quv qollanmasi. –Toshkent: TDIU, 2019. – 180 b. 13. Yassaviy Xoja Axmad Devoni xikmat. –Toshkent: Navro‘z, 2018 14. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020. 15. Farfiyev B. O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizm omili. − Toshkent: O‘FMJ nashriyoti, 2019. **Axborot manbalari** 16. www.ziyonet.uz. 17. www.edu.uz. 18. www.google.uz. 19. www.gov.uz.
7.	Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy universiteti O‘quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish boshqarmasining 2024 yil ___dagi ____sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** **Shermuxamedova N.A.** – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor **Jalilov B.**J. – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasi dosenti, falsafa fanlari nomzodi dotsent **Alimova Mahfuza** – O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Dinshunoslik va jahon dinlarini o`rganish” YUNESKO kafedrasi mudiri, falsafa doktori PhD, dotsent **Komilov D.Z.** – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dosenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD.
9.	**Taqrizchilar:** **Abdullaeva N.** – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasining professori f.f.d. **Ziyotov Shovosil** – Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi direkroti, tarix fanlari doktori DSc, professor

	https://unilibrary.uz/literature/575864 16. Саифназаров И. Мухтаров А., Абдуллаханова Г, Алиматова Н., Эрназаров Д, Философия. Учебник (для вузов экономических специальностей). – Ташкент: Innovasion rivojlanish nashriyoti – matbaa uyi. 2021. – 424 с. https://unilibrary.uz/literature/593785 17. Thomas Douglas. Moral Enhancement.- Journal of Applied Philosophy, 2008/3 https://www.researchgate.net/publication/23766912_Moral_Enhancement 18. Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 2003 19. T.Xo'janova Falsafa uslubiy qo'llanma - Samarqand: SamDCHTI/2022-156 bet
7.	Faning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy dastur talablari asosida ishlab chiqildi va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv-uslubiy Kengashining 2025 -yil 29.08 dagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlandi.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** T.Xo'janova - DTPI "Tarix va falsafa" kafedrasi dotsenti. J.I.Samatov – DTPI, "Tarix va falsafa" kafedrasi kata o'qituvchi.
9.	**Taqrizchilar:** G.K.Masharipova – Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori M.Toshboboyev – DTPI, "Tarix va falsafa" kafedrasi dotsenti, f.f.d.

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	TOP-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	TOP-300 (QS, THE, ARWU) dagi o'rni	Sayt manzili, linki
14	Stanford University (United States)	5/6/2	file:///C:/Users/next%20nout/Downloads/PHIL.OSOPHY-2025-06-16-21-38-02.pdf.
15	University of Oxford United Kingdom Harvard University United States University of Cambridge United Kingdom	3/1/6 4/3/1 2/5/4	https://www.ppe.ox.ac.uk/sitefiles/ppe-handbook-fhs-2024-26-v1.0.pdf?utm_source=chatgpt.com. https://scholar.harvard.edu/files/benroth/files/tufts_intro_syllabus.pdf?utm_source=chatgpt.com. https://www.phil.cam.ac.uk/system/files/documents/gtc2020-2021.pdf?utm_source=chatgpt.com.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori:
_____ O.A.Ruziyev
"29" 08 2025-yil

№ 893 1.01.2025
29 08 2025

Ro'yxatga olindi:
№ 893.1.01.2025
2025-yil "29" 08

FALSAFA FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: *200 000 – San'at va gumanitar fanlar*

Ta'lim sohasi: *220000 – Gumanitar fanlar*

Ta'lim yunalishi: *Barcha nomutaxassis bakalavr yo'nalishi talabalari uchun*

DENOV – 2025

Fan/modul kodi FA1104	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3	Kreditlar 4
Fan/modul turi Tanlov	Ta’lim tili: O‘zbek		Haftadagi dars soatlari: 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	Falsafa	60	60	120

2

I. Fanning mazmuni.

Falsafa fan sifatida olamdagi voqea-hodisalarning mohiyatini tushunish va ularga munosabat bildirish, insonnig o’z hayoti ma’nosi va maqsadini bilish va tanqidiy fikrlash mahoratini shakllantiradi. Falsafa dunyoqarash sifatida “so’zlar, so’zlar va yana so’zlar” orqali inson ongiga ta’sir etadi, unga fikrlash va yo’l tanlash mahoratini o’rgatadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarning oliy ta’lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlardan ijtimoiy – ma’naviy hayotda maqsadli foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – talaba yoshlarda falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlarni shakllantirish, falsafiy, tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini, texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi, milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o‘zaro aloqasi va farqi, dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg‘unligini ta’minlashning ahamiyati, tog‘ri fikrning ijobiy maqsadlarga erishishdagi o‘rni, global korrupsiyaning sabablari va shakllarini bilish, ularga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida to‘liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas’uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo`shish tuyg`usini shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. FALSAFA

1-mavzu. Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli

Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati. Falsafaning predmeti va asosiy masalalari. Falsafiy bilimning strukturasi. Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati yoki amaliy falsafa. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik dunyoqarashning mohiyati va funksiyalari. Diniy dunyoqarashning mohiyati, funksiyalari va tarixiy ildizlari. Diniy e`tiqodning tarixiy shakllari. Falsafiy dunyoqarashning mohiyati. Ilmiy dunyoqarash va unig rivojlanish bosqichlari. Falsafa va fanning mutanosibligi va farqi. Raqamli sivilizatsiya davrida falsafaning yoshlar ongida to`gri fikrlash mahorati va mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyati.

2-mavzu. Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli

Qadimgi Sharq va G‘arb falsafasi vujudga kelishi, rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va farqlari. Qadimgi janubiy Sharq (Hindiston) va Shimoliy sharq (Xitoy) falsafasining mohiyati, axloqiy g`oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o’rni. Avesto muqaddas manbasida olamning tuzilishi, shaxs tarbiyasiga oid g’oyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati. O‘rta asrlarda Sharq va G‘arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Al-Farg‘oniy, Al Xorazmiy, Al-Beruniyning tabiiy-ilmiy, axloqiy, siyosiy qarashlarining mohiyati va hozirgi davrdagi ahamiyati. Al- Forobiy, Ibn Sinoning inson tarbiyasiga oid go’yalari va ularning hozirdi davdagi ahamiyati. Sharq mutafakkirlari J.Rumiy, G’azzoliy, Nizomulmulk, ar-Roziy, N,Ganjaviy, A.Jomiy, A.Navoiy, M.Ulug’bek, Mashrab, Gulxaniy, Ogahiy, Furqat, Muqumiy, Maxtumquli, A. Donish axloqiy qarashlarining yangi O’zbekiston yoshlari tarbiyasidagi o’rni. Tasavvuf falsafasida olam va odam haqidagi qarashlarning mohiyati. Yu. Hamadoniy, A.Yassaviy, B. Haqshbandiy axloqiy ta’limotining shaxsning ma’naviy kamolotga erishishdagi o’rni. XIX-XX asrda jadidizmning rivojlanishidagi ijtimoiy tarixiy sharoitlar. I. Gaspirali, M. Abdurashidxonov, A. Avloniy, M. Behbudiy, A.Fitrat, Cho’lpon, A.Qodiriy, U.Nosir ma’rifatparvarlik g’oyalarining yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli. XX-XXI asr o‘zbek falsafasining barqaroror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ijtimoiy ahamiyati.

3-mavzu. G‘arb falsafasining ustuvor yo`nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta’siri

Qadimgi Yunon falsafa maktablarining fan taraqqiyotiga ta’siri. Geraklitning dunyo o’zgaruvchanligi haqidagi g’oyalarining mohiyati. Sokrat qarashlarining ijtimoiy ahamiyati. Demokritning atomlar haqidagi ta’limotining olam haqidagi qarashlar transformatsiyasidagi o’rni. Platonning davlat boshqaruvi haqidagi g’oyalari. Aristotelning axloq haqidagi qarashlarining hozirgi davrda shaxs tarbiyasidagi ahamiyati. Ilk O‘rta asrlarda Yevropa falsafiy tafakkuri rivojlanishining asosiy shakllari: apologetika va patristika. Avgustin ta`limotining olam va odamni tushunishdagi ahamiyati. Sxolastika maktabi g’oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi roli. U.Okkam va Foma Akvinskiy ta’limotining jismlar mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. Uyg‘onish davri Yevropa falsafasida panteizm, antroposentrizm va dialektikaning rivojlantirilishi. Yangi davr G‘arb falsafasida borliq va jamiyatni bilish haqidagi qarashlar talqini. XVIII asr Yevropa ma`rifatparvarlari g’oyalarining axloqiy tarbiyadagi roli. Nemis klassik falsafasining inson mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. XIX-XX asr G‘arb falsafasining mohiyati va uning shaxslararo munosabatlarga ta`siri.

XXI asr G`arb falsafasining yo‘nalishlari va uning iste`mol jamiyatini shakllantirishdagi o`rni. G’arb falsafasida madaniyat industriyasining tanqidi va psixoanaliz ta`limotining zamonaviy shaxs tarbiyasidagi roli.

4-mavzu. Borliq falsafasi (Ontologiya)

Borliq tushunchasining mohiyatiga oid falsafiy va tabiiy ilmiy konsepsiyalar. Borliq va yo‘qlik dialektikasi. Sof borliq g‘oyasi. Falsafa tarixida borliq haqidagi qarashlar dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Biosfera va noosfera haqidagi ta’limotlar. Koevolyutsiya-(ekotizimda o'zaro ta'sir qiluvchi biologik turlarning

birgalikdagi moslashish evolyutsiyasi,) va environmentalizm (ekologiya nazariyalarida borliqni asrash g'oyasi). O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy dasturining tabiatni asrashdagi ahamiyati. Borliqda substrat, substansiya va materiyaning o'zaro aloqasi. Materiyaga oid konsepsiyalar tasnifi. Borliqda materiya harakatining mohiyati, tiplari va shakllari. Borliqda makon va vaqtning substansional, relatsion, dinamik va statik konsepsiyalari. Makon va vaqtning topologik va metrik xossalari. Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt dialektikasi.

5- mavzu. Rivojlanish falsafasi

Borliqda narsa va hodisalarning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'zgarishi, rivojlanishi va taraqqiyotining o'zaro aloqadorligi. Rivojlanish qonunlarining mohiyati, ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. Falsafa kategoriyalarining tasnifi va ularning rivojlanish jarayonlaridagi roli. Rivojlanishda borliqning chekliligi va cheksizligi, potensial va aktual cheksizlik. Borliqning birligi va rang barangligi. Borliqning rivojlanishida geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar, kengayuvchi olam, universal kosmik gologramma, torsion maydonlar haqidagi ilmiy dalillar. Qizil siljish nazariyasining rivojlanish va o`zgarish jarayonlariga ta`siri. In'ikos nazariyasi va uning rivojlanish jarayonidagi o`rni. R.Anoxin in`ikos nazariyasining mohiyati.

6-mavzu. Bilish falsafasi

Bilish jarayonining mohiyati va mezonlari. Bilish va bilimga oid yondashuvlar tasnifi: sensualizm, empirizm, ratsionalizm, otpimizm, skeptitsizm va agnostitsizm. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda sub'yekt va ob`yektning o'zaro aloqasi. Bilishning faoliyat turi sifatida o`zgaruvchanligi. Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv bilish darajalari. Haqiqat bilishning mezoni. Isbotlash va rad etish, yolg'on va yanglishishning haqiqatni bilishdagi roli. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Bilishning ma`naviy qadriyatlari. Amaliyot haqiqatning mezoni. Metod, metodika metodologiyaning o`zaro aloqasi va farqi. Bilish metodlarining tasnifi, o`zaro aloqasi va farqi. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi.(Kumatoid, keys stadi, abduksiya). Bilish jarayonida tushunish va tushuntirishning roli. Simvol va semiotik belgilarning ma`noni ahglashdagi ahamiyati.

7-mavzu. Mantiq

Mantiqning mohiyati. Formal, noformal, dialektik, matematik mantiqning o`zaro aloqasi. Mantiqiy semantikaning fikr ravonligini ta`minlashdagi roli. Mantiq va ritorika, til va mantiq dialektikasi. Tafakkur qonunlari va shakllari. Tafakkur va til mutanosibligi. Tushuncha tafakkur shakli. Tushunchaning turlari va ular orasidagi aloqalar. Hukmning mohiyati va qoidalari. Bo'linishning mohiyati, turlari va qoidalari. Oddiy hukmlarning turlari va tarkibi. Qat`iy hukmlarning tasnifi. Murakkab hukmlar. Deduktiv xulosa chiqarishning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Bo'linuvchi kategorik xulosa, shartli ajratuvchi xulosa. Sillogizm nazariyasi. Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizm. Induktiv xulosa. Ommabop induksiya. Ilmiy induksiya. Analogiya bo'yicha xulosa. Analogiya turlari. Argumentatsiya (mantiqiy asoslar)ning tarkibi, sub'yektlari, tuzilishi. Bahslashish usullari, asoslash va tanqid qilish. Isbotlash va rad qilishda dalillarning o'rni. Tanqidiy tafakkurning mantiqiy xulosa chiqarishdagi roli. Gipotezaning mohiyati, turlari, gipotezani tekshirish. Savollar va javoblar mantig'i. Savollar va javoblar turlari.

8-mavzu. Jamiyat falsafasi

Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari. Jamiyatning paydo bo'lishiga oid qarashlar dinamikasi. Jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslari, mulk, moddiy ishlab chiqarishning mohiyati. Xususiy tadbirkorlik va ishbilarmonlikning iqtisodiy barqarorlikga erishishdagi roli. Jamiyat rivojining siyosiy asoslari. Davlat boshqaruvi shakllari. Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi va demokratiya. Jamiyat rivojining ma'naviy asoslari. Ma'naviy hayot mezonlari. Ma'naviy kamolot omillari. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy birliklar va guruhlar, etnik birliklar, tabaqalar, sinflar, hududiy guruhlar. O'zbekistonda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiyaning ijtimoiy ong transformatsiyasiga ta'siri. O'zbekistonda "Yangi ma'naviy muhit yaratish" va "Ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi.

9 - mavzu. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat

Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Sivilizatsiya va madaniyat mutanosibligi. Madaniyat tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. Madaniyatning ichki tuzilishi. Madaniyatning sub'ekti. Madaniy faoliyat dinamikasi. Madaniy predmetlilik va madaniy kommunikatsiyaning ahamiyati. O'zbek madaniyati va etnomadaniyat dialektikasi. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning axloqiy tarbiyaga ta`siri. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati. XXI asrda an`anaviy va zamonaviy madaniyat uyg`ung`unligini ta`minlashning ahamiyati va ularning axloqiy tarbiyadagi o`rni.

10- mavzu. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)

Falsafada insonning mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Insonni tushunishga dualizm, monizm va fan nuqtai-nazaridan yondashuv. Insonning ko'p o'lchovligi. Insonning bioijtimoiy, madaniy mohiyati. Passionarlik, subpassionarlik va muvofiq odamlar nazariyasining mohiyati. Ijtimoiy ongning strukturasi va funksiyalari. Ijtimoiy ong shakllari. Ijtimoiy psixologiya. Inson faoliyatida onglilik va ongsizlik dialektikasi. Ong, til va tafakkur dialektikasi. Texnologik taraqqiyotning klipli tafakkur shakllanishiga ta`siri. Falsafiy antropologiyaning mohiyati, predmeti va vazifalari. Hayotning ma`nosi va unda insonning vazifasi. Iztirob, qo'rquv, agressiyaning tabiati. O'limning tabiiyligi va muqarrarligi (tabiiy o'lim, suitsid, parasuitsid, evtanaziya, esxatologiya). Antrop tamoyilning mohiyati. Inson faoliyatining tuzilishi va atributlari. Inson faoliyatida onglilik va maqsadga muvofiqlikning ahamiyati. Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat, o'yin, ijodning faoliyat turi sifatida inson kamolotiga ta`siri. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati.

11-mavzu. Qadriyatlar falsafasi. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi

Qadriyat tushunchasining ma`nosi va uning umumiy tasnifi. Qadriyat kategoriyasining mazmuni. Qadriyatlarning turlari: moddiy va ma`naviy, umuminsoniy, milliy, shaxsiy, axloqiy qadriyatlar. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Oilaning qadriyatga doir jihatlari. Oila sha`nini saqlashda avlodlararo vorisiylikning o`rni.

Oiladagi ajralishlar va uning inson psixologiyasiga salbiy ta'siri. Oilaviy qadriyatlarga nisbatan an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlar. Davlatning oila farovonligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlikning qadriyatli jihatlari. Gender tengligini ta`minlashning iqtisodiy-ijtimoiy omillari. Qariyalarni qadrlashning ijtimoiy-ma`naviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o`rni. Mahalla – o'zbek milliy qadryiati sifatida. Sog'likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Uchinchi ming yillikda qadriyatlarning transformasiyasi. Qadriyatlar va baholar dinamikasi. Qadriyatlarni baholashning ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari. Jamiyatda qadrlanish va qadrsizlanish jarayonlari.

Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolarning mezonlari va darajalari. Globallashuvning fundamental asoslari va xususiy jihatlari. Global muammolarning tasnifi: urush va tinchlik, demografiya, migratsiya, ta'lim, energetika, ekologiya, oziq-ovqat, urbanizatsiya. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning globallashuvi va uning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni. Global etika muammolari. Global makonda texnika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi. Nanotexnologiyalar va biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta`siri. Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global mumamolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar mutanoosibligi.

12-mavzu. Etika

Etikaning mohiyati va ahamiyati. Zamonaviy axloqning asosiy sohalari: metaetika, normal etika, amaliy etika. Etikaning asosiy kategoriyalari. Etikada ijtimoiy adolat tamoyili. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Sharq va G'arb mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqning shakllanishiga oid genetik va diniy yondashuvlar tasnifi. Gedonizm va evdomonizm ta`limotlarining axloqiy tarbiyaga ta`siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Kasbiy axloq va mehnat etikasi: komp'yuterdan foydalanish etikasi, bloger etikasi, xaker etikasi, kiberetika, tibbiy etika, yuridik etika, kutubxona etikasi, ijtimoiy hayot etikasi. Siyosat va axloq o'rtasidagi munosabat. Siyosatda professional etika va yangi axloq siyosati. Ekologik etika. Ishbilarmonlik etikasi. Davlat tashkilotlari va davlat xizmati tizimidagi kasbiy etika.

13-mavzu. Estetika

Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Estetik ong va uning strukturasi. Estetikaning asosiy kategoriyalari: ulug'vorlik, tubanlik, fojiaviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, xayoliylik va qiziqarlilik. Sharq va G'arb mutafakkirlarining estetik qarashlari. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta`siri. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni estetik idrok etishning darajalari. Estetik dizayn va landshaft dizaynda milliylik va zamonaviylik dialektikasi. San'at dunyoni estetik idrok etish shakli. San'atning turlari va funksiyalari. Xalq amaliy san'atining estetik jihatlari. San'atdagi inqiroz (degumanizatsiya). Tushkunlik san'ati va undan chiqish mahorati. Yoshlarda estetik didni tarbiyalashning ahamiyati.

14-mavzu. Texnalogiya va xaqiqat, suniy ong falsafasi

Texnologiya va falsafiy tafakkur, Texnologiyaning insoniyat tarixidagi o'rni va

taraqqiyoti. Texnologiyaning mohiyati – vosita, qurol, tafakkur mahsuli sifatida. Falsafada texnologiya – "insoniylikning cho'qqisi yoki inqiroz sababi?" savoli. Haqiqat tushunchasi va texnologik davrda uning talqini Klassik falsafada haqiqat: Aristotel, Aflotun, Forobiy, Kant. Texnologik jamiyatda haqiqatning "relativlashuvi" (post-haqiqat davri). Raqamli axborot muhitida "haqiqat" va "soxta haqiqat" (deepfake, manipulyatsiya). Sun'iy ong falsafasining shakllanishi Sun'iy ong (AI) tushunchasi va falsafiy muammolari. "Mashina tafakkur qila oladimi?" – A. Turingning mashhur savoli. AI falsafasi: ong, tafakkur, intellekt va insoniylik chegaralari. Texnologiya va insoniylik o'rtasidagi dialektika. Texnologiya – inson imkoniyatlarini kengaytiradi, ammo uni o'z "quliga" aylantirishi mumkin. Insoniylik va texnologik xavf (degumanizatsiya, avtomatlashtirish oqibatlari). Transgumanizm va postgumanizm oqimlari. Sun'iy ong va haqiqatni yaratish jarayoni. AI algoritmlari orqali haqiqatni qayta qurish (virtual simulyatsiya, generativ kontent). Haqiqatni manipulyatsiya qilish va etik muammolar. "Sun'iy haqiqat" fenomeni – metaverse va virtual dunyo. Texnologik estetika va haqiqat masalasi. Raqamli san'at, NFT, virtual estetika. Estetik did va texnologiya: insoniy ijod va algoritmik ijod farqlari. Haqiqatni texnologiya orqali "go'zallashtirish" yoki "buzish" muammosi. Sun'iy ongning axloqiy va huquqiy muammolari. AI qarorlarining axloqiy mas'uliyati kimga tegishli? "Mashinalar huquqi" va "insoniy erkinlik" muammosi. Falsafiy yondashuv: utilitarizm, deontologiya, erkinlik falsafasi. Virtual va vizual haqiqatning farqlari. Vizual haqiqat – real tajriba asosida ko'riladigan narsalar. Virtual haqiqat – texnologiya orqali yaratilgan "sun'iy tajriba". Bu ikki haqiqatning ong va tafakkurga ta'siri. Texnologiya va jamiyatning kelajagi. Raqamli jamiyat, sun'iy intellekt va global xavfsizlik. Haqiqat va texnologiya uyg'unligi – insoniyatni yuksaltiradimi yoki xavf ostiga qo'yadimi? Sun'iy ong davrida falsafaning vazifasi – insoniylikni saqlash va haqiqatni himoya qilish. Yoshlar va texnologik tafakkur tarbiyasi. Texnologiyadan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish. Yoshlarni "virtual haqiqat" va "real haqiqat"ni farqlashga o'rgatish. Sun'iy ong davrida estetik, axloqiy va falsafiy didni rivojlantirish.

15-Tanqidiy tafakkur va falsafiy savol berish sa'ati

Tanqidiy tafakkurning mohiyati. Tanqidiy tafakkur – mavjud fikrlarni shubha ostiga olish, dalil asosida tekshirish va yangi qarashlar yaratish qobiliyati. U inson tafakkurining mantiqiy, axloqiy va ijodiy jihatlarini uyg'unlashtiradi. Falsafiy savol berishning o'rni. Falsafiy savollar: "Nima uchun?", "Aslida nima?", "Bu nimani anglatadi?" kabi chuqur ma'noli so'roqlar. Savol – bilishning boshlang'ich nuqtasi, falsafa esa shu savollarga izlanishda tug'iladi. Tanqidiy tafakkur va mantiqiy fikrlash. Tanqidiy tafakkurda tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibatni aniqlash muhim. Mantiqiy xatoliklardan saqlanish va dalil-isbotga asoslanish. Sharq va G'arb tafakkurida savol berish madaniyati. Sharqda: Socrates uslubiga yaqin savol-

javob an'anasi, Navoiy va Forobiy tafakkuri. G'arbda: Sokratik dialog, Descartesning shubha metodologiyasi, Kantning "Nima?" savollari. Zamonaviy ta'lim va tanqidiy tafakkur. Tanqidiy tafakkur – kreativ ta'limning asosi. Mustaqil qaror qabul qilish va axborot xurujlaridan himoya. Raqamli davrda tanqidiy tafakkur – yolg'on axborotni aniqlash vositasi. Falsafiy savol berishning texnologiyasi. "Nima?", "Nega?", "Qanday?" savollaridan foydalanish. Savol berish jarayonida: aniqlik, dalillilik, xolislik. Muammoli savol → izlanish → yangi bilim → tafakkur kengayishi. Tanqidiy tafakkur va ijodkorlik. Tanqidiy fikrlash – mavjud bilimni tahlil qilish. Ijodkorlik – yangicha fikrlar yaratish. Falsafiy savollar – ijodiy izlanish uchun motivatsiya. Falsafiy savollar misollari. "Go'zallik nima?" "Haqiqatni qanday bilish mumkin?" "Texnologiya odamni erkin qiladimi yoki qaram qiladimi?" "Ong mashinada paydo bo'ladimi?" Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish usullari. Munozara va bahs-munozara mashqlari. "Sokratik suhbat" metodi. Savol-javob mashg'ulotlari, keys-stadi, mantiqiy muammolarni hal qilish. Talabalar uchun falsafiy savol berish mashqlari. San'at, texnologiya, axloq, tabiat haqidagi savollarga falsafiy javob izlash. "Bir masalaga ikki xil qarash" usuli. Savoldan savol tug'dirish – tanqidiy tafakkurni rivojlantirish yo'li.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Falsafa va uning jamiyat hayotidagi roli.
2. Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli;
3. G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri;
4. Borliq falsafasi (ontologiya)
5. Rivojlanish falsafasi;
6. Bilish falsafasi (epistemologiya);
7. Tafakkur - mantiqiy fikrlash asosi;
8. Jamiyat falsafasi;
9. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat;
10. Inson falsafasi (falsafiy antropologiya);
11. Qadriyatlar falsafasi. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi;
12. Axloq falsafasi;
13. Nafosat falsafasi;
14. Texnalogiya va xaqiqat, suniy ong falsafasi;
15. Tanqidiy tafakkur va falsafiy savol berish sa'ati;

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardan bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Har hafta 3 ta: "Nega?" bilan tugaydigan falsafiy savol yozish: Har haftalik mini-fikrlar daftari
2. "Men nimaga ishonaman?" esse
3. Sun'iy ong va inson haqiqatni qanday farqlaydi? esse
4. Siz axloq kodeksini boshqatdan yozsangiz, qanday bo'ladi? Esse yozish
5. Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlarini qiyosiy tahlil qilish Masalan: Ibn Sino va Kant, Rumiy va Nietzsche.
6. Tanlangan falsafa asari asosida qadriyatlar evolyutsiyasi. Qadriyatlar tahlili
7. "Bugungi dunyo axloqiy inqirozdami?" siz nima deb o'ylaysiz? savoliga asoslangan tahlil. Qadriyatlar tahlili.
8. Globallashuv, posthaqiqat, axborot manipulyatsiyasi haqida infografika.
9. "Eng murakkab axloqiy tanlovim" Mavzu bo'yicha shaxsiy esse yozish (Thomas Douglas maqolasi asosida).
10. Falsafiy infografika – ? tushunchalarni vizual ko'rinishda ifodalash
11. Falsafa nima? Savollarni savol qilish san'ati.
12. Bilish va haqiqat: Posthaqiqat va sun'iy intellekt kontekstida
13. Etika: nima yaxshi? Nima yomon?
14. Mantiqiy fikrlash: Argument arxitekturasi.
15. Texnologiya va ong: Zamonaviy muammolar.
16. Ijtimoiy adolat va global etik qarashlar
17. Ekzistensializm: Erkinlik va mas'uliyat
18. "Falsafa mening dunyoqarashimda" Innovatsion o'quv uslublari:
19. "Sun'iy ong haqiqatni buzadimi?"
20. Estetika va kreativ ong
21. "Philosophy & AI" – ChatGPT yoki boshqa vositalar bilan zamonaviy muammolar tahlili
22. Kreativ esse: "Agar men Platon bilan nonushta qilganimda..."
23. Vaziyatli analiz: Etik dilemma (Black Mirror epizodi asosida).

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan esselar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3

V. *Fanni o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)*

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Dunyo haqidagi qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o'rganish asosida professional faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, Qadimgi, O'rta asrlar, Yangi va eng Yangi davr Sharq va G'arb falsafasining asosiy g'oyalari, G'arb renessansi shakllanishiga O'rta asr Sharq falsafasining ta'siri, bo'lishi;

ontologiyaning yo'nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot

	ontologiyasining ijtimoiy ahamiyati, fizik va falsafiy ontologiyaning o'zaro aloqasi va farqlari, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'rni, ong ontologiyasining transformasiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; *Internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallash; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish, kiberterrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillari, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati sifatida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sirini bilish, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg'usi shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtirish, jismoniy va ruhiy sog'lik, tafakkur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta`minlash, ijtimoiy nazorat va shaxsiy mas`uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish b`oyicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.*  ***Ko'nikmalar jihatidan:*** • *Ma`naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilishi, milliy mustaqillik g'oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarashga ega bo'ladi;* • *bakalavriat yo'nalishiga mutanosib ravishda raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'ladi;* • *yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi va o'zini kamolotga yetkazish ustida ishlay oladi;* • *ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslarga tegishli lavozimlarning bo'sh o'rinlarida mustaqil ishlay olish tajribasiga ega bo'ladi;* • *Bakalavriatning tegishli yo'nalishi doirasida tanlangan ixtisoslik bo'yicha magistratura oliy ta'limini davom ettirish malakalariga ega bo'ladi.*
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** - Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish; - ma'ruza va amaliy mashg'ulorlarda muntazam qatnashish; - tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish;

	- o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; - munozaralar va o'quv konferensiyasida ishtirok etish; - tayanch konspektlar tuzish; - joriy va oraliq nazorat vazifa va topshiriqlarini bajarish; - mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; - yakuniy nazorat topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Yaxshilikov J.Ya. Falsafa, darslik – Samarqand: 2025. 609-bet. 2. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish –Toshkent: Innovasiya –Ziyo, 2024. https://unilibrary.uz/literature/173824 3. Nazarov Q., Qodirov M., Yuldasheva M. Falsafa - O'quv qo'llanma –Toshkent: Innovasiya –Ziyo, 2021. 4. A.Usmanov "Falsafa" O'quv qo'llanma, Toshkent / Oltin qalam mashriyoti / 2025-yil. 5. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.667-b. https://unilibrary.uz/literature/740645 6. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b https://unilibrary.uz/literature/748888 6. Saifnazarov I., Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: Innovasion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi, 2021. – 424 b. https://unilibrary.uz/literature/748919 7. Madaeva Sh., Shermuhamedova N.va boshqalar Falsafa, o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019 https://unilibrary.uz/literature/747329 8. Payne, W. Russ. ***An Introduction to Philosophy***. Bellevue College, 2023. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/770314 9. Felipe de Brigard and Walter Sinnot-Armstrong. Neuroscience and Philosophy - The MIT Press Cambridge, Massachusetts, London, England 2022. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/770328 10. Will Buckingham, Douglas Burnham, Clive Hill, … The Pholosophy Book: Big Ideas Simply Explained- London, New york, Melbourne, Munich, and Delhi. 2021.https://unilibrary.uz/my-publication/literature/770297 **Qo'shimcha adabiyotlar** 12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b. https://unilibrary.uz/literature/619332 13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda quramiz-Toshkent: O'zbekiston, 2021 https://unilibrary.uz/literature/760404 14. Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017. https://unilibrary.uz/literature/640266 15. Ўзбекистоннинг коррупцияга қарши кураш стратегияси/Алиев Б, Мухтаров А., Норов Т., / ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022. –320 б.

A3	Sa'dullayev A., Xudoyberganov G. Matematik analiz kursidan misol va masalalar to'plami. 3-qism: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2000.
	Qo'shimcha adabiyotlar (Q)
Q1	Alimov Sh. O. Matematik analiz. 1-qism: darslik. – Toshkent, 2018.
Q2	Gaziyev A., Israilov I., Yaxshiboyev M. Matematik analizdan misol va masalalar: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012.
Q3	Abirayev I., Imomaliyeva Sh. Matematik analiz: uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2025.
	Internet saytlari (I)
I1	http://www.ziyonet.uz/
I2	http://www.allmath.ru/
I3	http://www.mcce.ru/
I4	http://lib.mexmat.ru/
I5	http://www.webmath.ru/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori
_____ O.A.Ruziyev
29 avgust 2025-yil

Ro'yxatga olindi:
№ _____
2025-yil "____" _____

HISOB (CALCULUS) fani
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq 300 000 Ishlab chiqarish – texnik soha.
